**Kalit so'zlar:** demografik o'zgarishlar, iqtisodiy rivojlanish, mehnat bozori, islohotlar, aholi soni, iqtisodiy barqarorlik, aholi turmush darajasi, ijtimoiy muammolar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N21>

**Kirish.** Jahon mamlakatlari aholisi kundan kunga o'sib bormoqda. Biroq raqamlashtirish, global iqtisodiyot, siyosiy jarayonlar va tahdidlar aholi sonidagi o'zgarishlardan emas, balki sifat ko'rsatkichlaridan ta'sirlanmoqda.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning aholisi nafaqat keksayib bormoqda, shu bilan birga kamayish tendensiyasiga ham ega.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, "2050-yilda yer yuzi aholisining 22 foizini pensionerlar tashkil qiladi. Har bir soniyada ikki kishi o'zining 60 yoshini nishonlamoqda. BMT prognozlariga ko'ra asrimiz o'rtalariga borib, yer yuzida 100 yoshdan oshgan 3,2 millionga yaqin kishi istiqomat qiladi. Bugungi kunda ularning soni 300 mingdan oshib ketgan. 2050-yilda aholining o'rtacha yoshi 76 yoshni, 2100-yilda esa 85 yoshni tashkil qiladi. Bunga

sog'liqni saqlash tizimining yaxshilanishi, iqtisodiy farovonlik sabab bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda esa har bir ishlayotgan xodimga bir nafar pensioner to'g'ri keladi".

O'zbekiston iqtisodiy islohotlari oldida mehnatga layoqatli bo'lgan har bir fuqaroni bandligiga munosib ko'maklashgan holda ishsizlik va kambag'allik darajasini qisqartirish masalasi ko'ndalang turibdi. Albatta bunda, istiqbolda kutilayotgan demografik bosimni milliy va hududiy mehnat bozoriga ijobiy bo'lmagan ta'sirini e'tiborga olgan holda mavjud iqtisodiy faol aholini, ayniqsa, ishsiz va kambag'al fuqarolarni daromadli mehnat faoliyatiga faol jalb qilish maqsadida davlat dasturlari doirasida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezident Sh.Mirziyoev 2023-yil 25-yanvardagi videoselektor yig'ilishida kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha 2023-yil uchun rejalar muhokama qilib, 2022-yilning o'zida kambag'allik darajasi 17 foizdan 14 foizga tushgani, bunda hokim yordamchilari 1 million nafar aholini kasb-hunarga o'qitib, tadbirkorligini boshlashga ko'maklashgani, daromadli ish bilan band qilgani muhim omil bo'lgani qayd etilgan edi. Shuningdek, bu ishlarni 2023-yilda davom ettirish, bandlikni ta'minlash bo'yicha barcha tarmoq va hudud rahbarlariga aniq topshiriqlar berilgandi, jumladan, 2023-yilda 5 million nafar aholi bandligini ta'minlash, shu jumladan 2 millionta doimiy ish o'rinlarini yaratish zarurligi ko'rsatib o'tilgan edi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Arabov X. o'z tadqiqotlarida Samarqand viloyatining iqtisodiy o'sishi, sanoat va qishloq xo'jaligi sektorlari, shuningdek, innovatsion texnologiyalar joriy etilishining iqtisodiy natijalari haqida batafsil ma'lumotlar keltirib o'tgan.

Nasimov R. esa tadqiqotlarida demografik o'zgarishlar va bu o'zgarishlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri, mehnat bozorida muammolar va imkoniyatlar haqida ilmiy tahlillarni keltirgan.

Islomov A. Samarqand viloyatining iqtisodiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratgan tadqiqotida, mintaqaviy rivojlanish strategiyalari, resurslarni boshqarish va ijtimoiy barqarorlik haqida keng qamrovli ma'lumot bergan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda iqtisodiy va demografik jarayonlarni chuqur tahlil qilish, olingan ma'lumotlarni sintez qilish va umumlashtirish, viloyatdagi iqtisodiy ko'rsatkichlar va demografik ma'lumotlar tahlil qilinib, bu bilan bog'liq tendensiyalar va o'zgarishlar aniqlangan bo'lib, boshqa viloyatlar va mamlakatlar bilan solishtirilgan holda iqtisodiy va demografik rivojlanish tendensiyalari o'rganilgan.


**Tahlil va natijalar.** 2022-yil davomida O'zbekistonda turli sohalarda 2,7 million aholining doimiy bandligi ta'minlangan va 4 milliondan ziyod aholi mavsumiy mehnatga jalb etilgan.

Ma'lumki, respublika demografik o'tishning uchinchi bosqichida, ya'ni yosh aholi tarkibiy tuzilishi hisobiga tug'ilish darajasi va o'lim ko'rsatkichining pastligi bilan tavsiflanadi.

Hozirgi demografik rivojlanish tendensiyalari mamlakat aholisining o'rtacha yoshga doir keksayish ko'rsatkichlarini tezlashishiga zamin yaratmoqda. Bu tendensiyalar, nafaqat, aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi va pensiya ta'minoti moliyaviy holatini, balki mehnat bozori uchun ham istiqbolli muammolarga zamin yaratishi mumkin.

O'zbekiston aholi soni kuniga o'rtacha 2 ming kishiga oshmoqda. Aholi soni bo'yicha Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo, Andijon, Toshkent, Namangan, Toshkent shahri va Surxondaryo viloyatlaridan keyingi o'rinda turuvchi Samarqand viloyati aholisi 2024-yil 1-

yanvar holatida 4208,5 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil 1-yanvar holatida bu ko'rsatkich 4297,5 ming kishiga yetdi (1-rasm).



**1-rasm. Samarqand viloyati umumiy aholi soni dinamikasi,  
2018-2025 yillar (yil boshiga, ming kishi)<sup>1</sup>**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son [Farmoni](#) ijrosini ta'minlash, Samarqand viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollari hamda har bir tuman va shaharning "o'sish nuqtalari"ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-aprelda "2022-2026-yillarda Samarqand viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 215-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorning 1-ilovasida "2022-2026-yillarda Samarqand viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar"i keltirilgan bo'lib, 2022-2026-yillarda viloyatda ishsizlik darajasini 9,1% dan 6,0% ga tushirish vazifasi qo'yilgan. Bundan maqsad eng avvalo, viloyatda mehnat bozori faoliyatini chuqur ilmiy tadqiq etishdan, undagi talab va taklif jarayonlarni nafaqat son, balki sifat ko'rsatkichlar spektrida ilmiy o'rganish talab etiladi.

Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra salkam 4297,5 ming kishini tashkil etdi. Davlat Statistika agentligi Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, viloyatning doimiy aholisi soni 2024-yil 1-yanvar holatida 4028,5 ming kishidan iborat bo'lib, 2025-yil boshiga 89,0 ming kishiga yoki 2,1 foizga ortgan.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi

## 1-jadval


Samarqand viloyati shahar va qishloq aholisi (yil boshiga)<sup>1</sup>

| Hudud nomi                | Jami aholi,<br>ming kishi | Shu jumladan,       |             |                     |             |
|---------------------------|---------------------------|---------------------|-------------|---------------------|-------------|
|                           |                           | shahar aholisi      |             | qishloq aholisi     |             |
|                           |                           | soni, ming<br>kishi | ulushi, %   | soni, ming<br>kishi | ulushi, %   |
| <b>Samarqand viloyati</b> | <b>4297,5</b>             | <b>1570,6</b>       | <b>36,5</b> | <b>2726,9</b>       | <b>63,5</b> |
| Samarqand sh.             | 595,8                     | 595,8               | 100,0       | 0                   | 0           |
| Kattaqo'rg'on sh.         | 95,9                      | 95,9                | 100,0       | 0                   | 0           |
| <i>tumanlar:</i>          |                           |                     |             |                     |             |
| Oqdaryo                   | 177,2                     | 68,0                | 38,4        | 109,2               | 61,6        |
| Bulung'ur                 | 206,9                     | 45,5                | 22,0        | 161,4               | 78,0        |
| Jomboy                    | 194,1                     | 42,4                | 21,8        | 151,7               | 78,2        |
| Ishtixon                  | 282,2                     | 75,4                | 26,7        | 206,8               | 73,3        |
| Kattaqo'rg'on             | 299,8                     | 56,0                | 18,7        | 243,8               | 81,3        |
| Qo'shrabot                | 144,4                     | 13,3                | 9,2         | 131,1               | 90,8        |
| Narpay                    | 231,6                     | 67,8                | 29,3        | 163,8               | 70,7        |
| Payariq                   | 279,8                     | 77,5                | 27,7        | 202,3               | 72,3        |
| Pastdarg'om               | 392,1                     | 99,7                | 25,4        | 292,4               | 74,6        |
| Paxtachi                  | 154,5                     | 29,5                | 19,1        | 125,0               | 80,9        |
| Samarqand                 | 278,6                     | 17,3                | 6,2         | 261,3               | 93,8        |
| Nurobod                   | 165,8                     | 18,5                | 11,2        | 147,3               | 88,8        |
| Urgut                     | 572,6                     | 240,2               | 41,9        | 332,4               | 58,1        |
| Tayloq                    | 226,2                     | 27,8                | 12,3        | 198,4               | 87,7        |

2025-yil boshida viloyatda shahar aholisi soni 1570,6 ming kishini hamda (jami aholi sonidagi ulushi 36,5 %), qishloq aholisi soni esa 2726,9 kishini (63,5 %) tashkil etdi. Shu o'rinda, viloyatning hududiy birliklari kesimi bo'yicha ma'lumotlar tahlillariga ko'ra, joriy yilning 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand shahrida 595,8 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi 13,6 %) va Pastdarg'om tumanida 392,1 ming kishi (9,1 %)ni, hamda eng kam aholi soni Kattaqo'rg'on shahrida 95,9 ming kishi (2,2 foiz)ni, Qo'shrabot tumani 144,4 ming kishi (3,3%)ni va Paxtachi tumanida 154,5 ming kishi (3,6 %)ni tashkil etmoqda (1-jadval).

Viloyat aholisining asosiy qismi qishloq joylarda yashashi, o'z navbatida hududlar mehnat bozori faoliyatini yanada takomillashtirish, mehnat bozori ehtiyojlarini va ishchi kuchi taklifini tadqiq etish zaruratini belgilaydi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi



**2-rasm. Samarqand viloyati shahar va qishloq aholisi dinamikasi, 2018-2025-yillar (yil boshiga)<sup>1</sup>**

So'nggi o'n yillikda Samarqand viloyati doimiy aholisida qishloq aholisi ulushi ortib borayotganligini ko'rish mumkin. Xususan, 2018-yilda shahar aholisi 36,9% ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 36,7% ni, 2025-yilga kelib esa 36,5% ni ko'rsatmoqda. Umumiy hisobda shahar aholisi ulushi so'nggi sakkiz yilda 1,5 foiz punktga kamaygan (2-rasm).

Samarqand viloyati hududiy bo'linmalari kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2015-yil (1,7%), 2016-yil (1,7%) va 2022-yil (1,7%) larga to'g'ri keladi. Shu o'rinda, COVID-19 pandemiyasi ham aholini o'sish darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. 2021-yilda aholi o'sish sur'ati 1,2% ni yoki 22,3 ming kishini tashkil etgan.

Barcha viloyatlardagi kabi Samarqand viloyatida ham mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholiga mehnatga layoqatli yoshdan katta va kichik yoshdagilar bosimi yildan yilga ortib bormoqda. Buni faqat ishsiz aholini zamonaviy kasblarga o'qitish, hududiy, milliy va xalqaro mehnat bozori ehtiyojlari uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish kabi chora-tadbirlar asosida yumshatib borish mumkin, deb hisoblaymiz.


Respublika bo'yicha 2023/2024 o'quv yilida jami umumiy o'rta ta'lim maktablarini 405,9 ming nafar bitiruvchilar tamomlashdi. Shundan, 177,4 ming nafar (43,7%) bitiruvchilar mehnat bozoriga kasbsiz kirib kelishdi. Mamlakatda maktab bitiruvchilarining qariyb 45% i mehnat bozoriga hech qanday kasbsiz kirib kelishi ishsizlik va kambag'allik sari qadam deb hisoblash mumkin.

Ma'lumki, respublikamizda 728 ta professional ta'lim muassasalari, 332 ta kasb-hunar maktablari, 159 ta kollejlari, 237 ta texnikumlar faoliyat yuritmoqda hamda hududiy, milliy va xalqaro mehnat bozoriga zamonaviy ko'nikmalar va malakaga ega o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlash tizimi yo'lga qo'yilgan.

Samarqand viloyatida 2024/2025 o'quv yili boshida 1323 ta umumta'lim maktablari, 9 ta akademik litseylar, 12 ta kasb-hunar kollejlari, 37 ta kasb-hunar maktablari, 24 ta texnikumlar hamda 15 ta oliy ta'lim tashkilotlari faoliyat yuritishdi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi


3-rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, 2018-2024-yillar davomida Samarqand viloyati umumta'lim maktablari soni o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, ayniqsa, 2020-2024-yillarda keskin o'sishga erishgan. 2019/2020 o'quv yilida umumta'lim maktablari soni 1225 tani tashkil etgan bo'lsa, 2020/2021 o'quv yilida ular soni 1260 ta (oldingi o'quv yiliga nisbatan 2,85% o'sish) ni, 2021/2022 o'quv yilida 1271 ta (oldingi o'quv yiliga nisbatan 0,87% o'sish)ni, 2022/2023 o'quv yilida esa 1285 ta (oldingi o'quv yiliga nisbatan 1,10% o'sish)ni, 2023/2024 o'quv yilida 1310 ta (oldingi o'quv yiliga nisbatan 1,94% o'sish)ni, 2024/2025 o'quv yilida 1323 ta (oldingi o'quv yiliga nisbatan 0,99% o'sish)ni tashkil etdi.



**3-rasm. Samarqandviloyati umumta'lim maktablari soni, 2018-2024-yillar, o'quv yili boshiga, (kishi)<sup>1</sup>**

So'nggi besh yil mobaynida umumta'lim maktablari o'quvchilari va o'qituvchilari o'sish tendensiyasini ko'rsatdi, 2018/2019 o'quv yilida Samarqand viloyati umumta'lim maktablari o'qituvchilari 47165 nafarni, o'quvchilari 612866 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2024/2025 o'quv yilida o'qituvchilar va o'quvchilar mos ravishda 62409 nafar (2018/2019 o'quv yiliga nisbatan qariyb 32,3%ga ortgan) va 789220 nafar (2018/2019 o'quv yiliga nisbatan qariyb 28,8%ga ortgan). Ushbu muddatda umumta'lim maktablari soni 8,4% ga ortganligini ko'rish mumkin (4-rasm).

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi



**4-rasm. Samarqand viloyati umumta'lim maktablari  
o'qituvchi va o'quvchilari soni, o'quv yili boshiga, (kishi)<sup>1</sup>**

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida professional ta'lim — "iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik tendensiyalarni hisobga olib, mehnat bozoridagi kadrlarga bo'lgan real ehtiyoj, ish beruvchilarning takliflari hamda "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida shaxslarning ta'lim olishiga mo'ljallangan".

Boshlang'ich professional ta'lim YuNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi" 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari hisoblanadi. Professional ta'lim esa ta'lim oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta'lim tizimi hisoblanadi.


O'zbekiston Respublikasida 2021-2024-yillar davomida respublikadagi professional ta'lim muassasalariga jami 1141,4 ming nafardan ortiq o'quvchi-yoshlar hamda kasb-hunar egallash istagida bo'lgan katta yoshdagi fuqarolar o'qishga qabul qilindi.

Ma'lumki, texnikum — xalqaro tasniflagichning 5-darajasigacha mos keluvchi va oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlaydigan hamda oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalaridir. Texnikum bitiruvchilari kelgusida oliy ta'lim muassasalarining tegishli yo'nalishlarida ta'limni davom ettirishini hisobga olgan holda tayyorlanadigan mutaxassisliklar ro'yxatini shakllantiradilar.

Samarqand viloyatida ham 2020/2021 o'quv yilidan boshlab 22 ta texnikum faoliyat yurita boshlagan bo'lsa, 2023/2024 o'quv yilida ular soni 24 taga yetdi.


Ushbu texnikumlarda har yili 7000 nafardan ortiq o'quvchilar qabul qilingan bo'lsa, birgina 2020/2021 o'quv yilidan ushbu texnikumlarda jami 440 nafar o'qituvchilar faoliyat yuritgan bo'lsa, 2023/2024 o'quv yilida ular soni 913 nafarga yetgan. Buni soni muntazam ortib borayotgan o'quvchilar bilan izohlash mumkin (5-rasm).

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi



**2.5-rasm. Samarqand viloyati texnikumlari o'qituvchi va o'quvchilari soni, o'quv yili boshiga. (kishi)<sup>1</sup>**

So'nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan, milliy malaka tizimi uchun muhim bo'g'in hisoblangan, zamonaviy oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha hukumat oldida katta vazifalar qo'yilgan. Ayniqsa, hududlarda yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo'limlarning ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi.



**6-rasm. Samarqand viloyati oliy ta'lim tashkilotlari soni, yil boshiga nisbatan, (birlilik)<sup>2</sup>**


2023/2024 o'quv yilida mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalari soni 219 taga yetdi va ularda bir milliondan ortiq talabalar tahsil olishmoqda.

Samarqand viloyatining o'zida 2023/2024 o'quv yilida 15 ta oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, ularda 90588 nafar talaba tahsil olmoqda.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi

Viloyatda 2018-2019-yillarda 8 ta oliy ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatgan. 2019/2020 o'quv yilida ular soni 11 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021/2022 o'quv yilida ular soni 14 taga yetgan (6-rasm).



**7-rasm. Samarqand viloyati talabalar soni. (kishi)<sup>1</sup>**

Samarqand viloyati oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni 2018/2019 o'quv yilida 34930 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2019/2020 o'quv yili ular soni 41093 nafarni tashkil etdi.

Asosiy o'sish sur'ati 2021/2022 o'quv yilidan kuzatilgan bo'lib, shu yili 2020/2021 o'quv yiliga nisbatan 15925 nafar (29,03 %) ga ortgan bo'lsa, 2022/2023 o'quv yilida oldingi o'quv yiliga nisbatan 3122 nafar (4,41%)ga kamaygan, 2023/2024 o'quv yilida 2018/2019 o'quv yiliga nisbatan 55658 nafar (2,6 martaga)ga ko'p talabalar tahsil ola boshlashdi (7-rasm).

Milliy malaka tizimi talablariga mos kadrlar tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni dasturul amal bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga mehnatga layoqatli aholiga ularning mehnat faolligidan to'la foydalanish, ishchi kuchi sifatini oshirish, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni xalqaro tajriba asosida kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish uchun sharoitlar yaratish maqsadida milliy malakalar tizimi ishlab chiqildi. Milliy malakalar tizimining asosiy maqsadlaridan biri fuqarolarning mehnat salohiyatidan to'la foydalanish uchun imkoniyatlar yaratishga yo'naltirilgan huquqiy, institutsional va infratuzilmaviy mexanizmlarni, jumladan, butun umr davomida ta'lim, malaka oshirish va qayta tayyorlashdan o'tish ko'rinishida shakllantirish, va shu asosda mehnat bozori va ta'lim tizimining amal qilishi va samarali o'zaro ta'sirini ta'minlashdir.

Ma'lumki, bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan asrimizda yoshlarni har tomonlama puxta bilim egallashi, zamonaviy kasb-hunar sirlarini chuqur o'rganis'hi dolzarb ahamiyatga ega. Bu esa iqtisodiyot tarmoqlariga malakali kadrlar yetishtirib beruvchi muassasalar oldiga ham muhim vazifalarni qo'yadi. Zamonaviy kasb-hunarga ega yoshlar mamlakat iqtisodiyotining muhim tayanchi hisoblanadi. Zero, hududiy, milliy va xalqaro mehnat bozoriga munosib, zamonaviy kasb egalarini tayyorlash bugungi kunda ustuvor vazifalardan sanaladi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi

**Xulosa va takliflar.** O'zbekistonning demografik rivoji, aholi sonining o'sishi, shuningdek, mehnat bozori va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni tahlil qiladi. 2022-yilda O'zbekistonda 2,7 million kishi doimiy bandlikda ishlagan, 4 milliondan ortiq aholi esa mavsumiy mehnatga jalb qilingan. Demografik o'tishning uchinchi bosqichida tug'ilish darajasi va o'lim ko'rsatkichi pastligi kuzatilmoqda, bu esa aholi tarkibining yoshi kattalashishini ko'rsatadi.

Samarqand viloyati aholisi 2025-yil boshida 4,3 million kishiga yetgan, viloyatning eng ko'p aholisi Samarqand va Pastdarg'om tumanlarida yashaydi. Samarqand viloyatida qishloq aholisi ulushi oshib bormoqda, va mehnat bozori ehtiyojlarini qondirish uchun mehnat resurslarini chuqur o'rganish zarur.

Viloyatda ta'lim tizimi ham rivojlanmoqda, umumta'lim maktablari soni o'smoqda va o'quvchilar bilan birga o'qituvchilar soni ham oshgan. Shuningdek, professional ta'lim tizimi ham rivojlanib, kasb-hunar ta'limi muassasalari va oliy ta'limga integratsiyalashgan dasturlar mavjud. 2023-2024-yillarda bitiruvchilarining katta qismi mehnat bozoriga kasbsiz kirib kelishi, ishsizlik va kambag'allik muammolariga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga, Samarqand viloyatida ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasidagi istiqbollarni rivojlantirish, aholi turmush darajasi va salomatligini yaxshilashga qaratilgan strategiyalar amalga oshirilmoqda.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Arabov X. Samarqand viloyatining iqtisodiy o'sishi, sanoat va qishloq xo'jaligi sektorlari va innovatsion texnologiyalar joriy etilishi. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashri. 2022-y.
2. Nasimov R. Demografik o'zgarishlar va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri, mehnat bozoridagi muammolar va imkoniyatlar. Toshkent: O'zbekiston ilmiy akademiyasi nashri. 2021-y.
3. Islomov A. Samarqand viloyatining iqtisodiy rivojlanishi: mintaqaviy rivojlanish strategiyalari, resurslarni boshqarish va ijtimoiy barqarorlik. Samarqand: Samarqand iqtisodiyot instituti nashri. 2023-y.
4. Sh.To'laganov. Dunyo demografik muammolar bilan to'qnash keldi(mi?) // Manba: <https://azon.uz/content/views/dunyo-demografik-muammolar-bilan-to'qnash> (2022-yil 13-may)
5. B.Umurzakov. Ijtimoiy hayot va demografik bosimlar // Manba: <https://xs.uz/uzkr/post/izhtimoiy-hayot-va-demografik-bosimlar> (2018-yil 19-dekabr)
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 4 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).